K. M. Umarmuklov	
"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati va uning hissasini oshirish masalalari	968
G. T. Mamajanova	
Kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari	972
Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich	



Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	978
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Институциональные концепции устойчивого развития в рамках стратегического управления экономикой региона.....	982
Сеитова Лейла Пулатовна	
Hududlarda turistik destinatsiyalarni majmuaviy rivojlantirishda raqobatbardoshlik strategiyasini takomillashtirish istiqbollari.....	990
Mirzayev Abdullajon Topilovich	
Современное состояние развитие системы железнодорожного транспорта.....	994
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Relevance of Benchmarking in Industrial Enterprises.....	997
Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi	
Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	1002
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat xususiy sheriklik asosida byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning holati tahlili.....	1006
Xalilova Sh. G'.	
Направления обеспечения конкурентоспособности во внешнеэкономических связях.....	1009
Ахмедов Икром Акрамович	
O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1023
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1030
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists.....	1034
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1039
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности.....	1043
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц.....	1049
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1055
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1058
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni.....	1062
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1066
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1071
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1078
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish.....	1083
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1087
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni.....	1092
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1097
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1102
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1107
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	



Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1112
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	
O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1120
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Quliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1127
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1133
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1139
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1146
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1150
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari: mavjud muammolar va yechimlar.....	1157
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1162
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1171
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1176
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHSIZLIKNING IQTISODIY OQIBATLARI: MAVJUD MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Fatilloev Farrux Farhod o'g'li

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishining
3-2IQT-22 guruh talabasi



Ilmiy rahbar: A. J. Abdullayev

I.f.f.d (PhD), BuxDU Iqtisodiyot kafedra mudiri, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik turlari, ularning mazmuni, mohiyati, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning yangi muammolari va imkoniyatlari, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari, mavjud muammolar va yechimlarga doir tahliliy ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, texnologik ishsizlik, sun'iy intellekt, ijtimoiy notenglik, iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik indeksi, strategiyalar.

Abstract: In this article, the types of unemployment in the digital economy in our country, their content, essence, new problems and opportunities of unemployment in the digital economy, economic consequences of unemployment in the digital economy, existing problems and solutions are highlighted.

Key words: digital economy, technological unemployment, artificial intelligence, social inequality, economic inequality, unemployment index, strategies.

Аннотация: В данной статье освещены виды безработицы в цифровой экономике в нашей стране, их содержание, сущность, новые проблемы и возможности безработицы в цифровой экономике, экономические последствия безработицы в цифровой экономике, существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: цифровая экономика, технологическая безработица, искусственный интеллект, социальное неравенство, экономическое неравенство, индекс безработицы, стратегии.

KIRISH

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. 1

Ilmiy adabiyotlarda band bo'lmagan aholi deganda "aholining doimiy ishsizlik darajasi, o'qish yoki vaqtincha ixtiyoriy ishlamasligi harakati tushuniladi". Hozirgi kunda band bo'lmagan aholini munosib ish o'rinlariga joylashtirish davlat siyosatidagi eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bandlik yoki aholini ish bilan taminlash – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beriladigan faoliyatidir. Ishsizlik ham ijtimoiy, ham iqtisodiy murakkab jarayon sifatida qaraladi. Ishsizlik jamiyatning ko'plab sohalariga ta'sir ko'rsatadi, chunki ishsizlik insoniyat tarixida muhim rol o'ynaganligi sababli, ular mehnat munosabatlarining rivojlanishi, yerlarning o'zlashtirilishi, madaniyatlar, tillar va xalqlarning shakllanishi bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, shuningdek, axborotni qayta ishlashning statistik va grafik usullaridan foydalanilgan.

1 file:///C:/Users/user/Downloads/band-bo-lmagan-aholini-munosib-ish-o-rinlariga-joylashtirishning-iqtisodiy-mexanizmlari.pdf



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Faqat oxirgi besh yil ichida raqamlashtirishning mehnat munosabatlariga ta'siri masalasi iqtisod va huquqshunoslik chorrahasida ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi, jumladan, R. Berger, J. Valenduk, P. Vendramin, V.B. Guld, M. Grem, G. Jonson, I. Dosen, K. Land-Kazlauskas, N.L. Lyutov, V. de Stefano va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik ko'plab murakkab va qiziqarli jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu sharoitda ishsizlikning tabiati o'zgaradi va yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolar ham paydo bo'ladi. Quyida raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning asosiy jihatlarini va ishsizlikning yangi turlarini ko'rib chiqamiz.

Ishsizlikning yangi shakllariga texnologik ishsizlik misol bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga ba'zi an'anaviy ish o'rinlari yo'qolishiga olib keladi. Avtomatlashtirish va sun'iy intellektning keng qo'llanilishi ba'zi kasblarni yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Platformali ishsizlikka yirik iqtisodiyotning kengayishi bilan, ko'plab ishchilar platformalar orqali qisqa muddatli yoki vaqtinchalik ishlarni bajarishlari natijasida vujudga keladigan ishsizlik misol bo'la oladi. Bu esa barqaror ish o'rinlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizga yangi ish o'rinlarini va ko'nikmalarni o'zlashtirishimiz zarurligini bildirmoqda. Bu jarayon yangi soha va kasblarni yuzaga keltiradi, xususan, data analitiklari, kiberxavfsizlik mutaxassislari hamda raqamli marketing mutaxassislari. Ishchilar yangi ko'nikmalarni egallash va ularni tezda o'zlashtirish zarurati tug'iladi. Raqamli ko'nikmalar, kodlash va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi ko'nikmalar talab qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ishchilar doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o'rganish va o'z bilimlarini yangilab turishlari zarur. Qayta tayyorlash dasturlari, ishchilarni qayta tayyorlash va ularning yangi kasblarga moslashuvchanligini oshirish uchun maxsus dasturlar va kurslar zarur bo'ladi.

DAVR24  МДҲ МАМЛАКАТЛАРИ ИШСИЗЛИК ИНДЕКСИ РЕЙТИНГИ

Жаҳондаги ўрни

мамлакат номи

ишсизлик даражаси %

14	 Арманистон	17%
19	 Грузия	14.4%
38	 Тожикистон	11%
51	 Украина	8.9%
75	 Қирғизистон	6.3%
81	 Ўзбекистон	5.9%
87	 Озарбайжон	5.5%
101	 Беларус	4.6%
102	 Козоғистон	4.6%
103	 Россия	4.6%
127	 Туркманистон	3.9%

Маълумотлар 2019 йил ҳолатига кўра тақдим этилган (2020 йил июл ойида нашр этилган)
Халқаро меҳнат ташкилоти

1-rasm: MDH mamlakatlari ishsizlik indeksi reytingi²

2 <https://davr24.uz/archives/6103>



Ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarga ijtimoiy tafovutlar kiradi. Raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan va bo'lmagan ishchilar o'rtasidagi tafovutlar kuchayishi mumkin. Bu ijtimoiy notenglik va iqtisodiy tengsizliklarni oshirishi mumkin. Ishlash sharoitlariga platforma iqtisodiyoti va raqamli ish sharoitlari ishchilarning huquqlari hamda ish sharoitlariga ta'sir qilishi tahmin qilinmoqda.

Davlatlar raqamli iqtisodiyotning ta'sirlarini yumshatish va ishchilarni himoya qilish uchun yangi siyosiy choralarni ko'rishlari muhim hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish, ishsizlik nafaqalarini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun investitsiyalar kiritish. Iqtisodiy strategiyalarni qayta ko'rib chiqish va raqamli iqtisodiyotga moslashish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bu raqamli infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ishchilar, davlatlar va bizneslar yangi sharoitlarga moslashish uchun birgalikda harakat qilishlari zarur. Texnologik taraqqiyotning ijobiy va salbiy ta'sirlarini balanslashtirish orqali raqamli iqtisodiyotning barcha qatlamlar uchun foydali bo'lishini ta'minlash mumkin.

Jahon bo'yicha ishsizlik reytingida O'zbekiston 5.9 % natija bilan 190 davlat ichida 81-o'rinda, MDH mamlakatlari doirasida biz oltinchimiz. MDH mamlakatlarida ishsizlik darajasi Armanistonda 17 %, Gruziyada 14.4 %, Tojikistonda 11 %, Ukrainada 8.9 %, Qirg'izistonda 6.3 %, Ozarbayjonda 5.5 %, Moldovada 5.5 %, Belarusda 4.6 %, Qozog'istonda 4.6 %, Rossiyada 4.6 % va Turkmanistonda 3.9 % ni tashkil qilar ekan.³

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishda bir qator muhim jihatlardan ularning ta'sirini ko'rib chiqish lozim. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ishchi kuchi bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari keng qamrovli va murakkabdir. Davlat va tadbirkorlik subyektlari birgalikda ish olib borishi va moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishi zarur. Bu strategiyalar ishsizlik darajasini kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun muhimdir.

1-jadval: Mamlakatimiz raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy muammolari⁴

Ishsizlik turlari	Muammolar	Muammoning mohiyati
Texnologik ishsizlik	Ish o'rinlarining yo'qolishi	Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari ba'zi an'anaviy ish o'rinlarini egallaydi. Bu esa an'anaviy ishchilarning ishsiz qolishiga olib keladi.
	Moslashuv ehtiyoji	Ishchilar yangi texnologiyalar va raqamli ko'nikmalarga moslashishi kerak. Bu esa doimiy ta'lim va qayta tayyorlashni talab qiladi.
Raqamli bo'shliqlar	Texnologiyaga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi	Raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatlari noteng taqsimlangan. Raqamli infratuzilmaning yetishmasligi yoki past darajasi ba'zi hududlarda ishsizlikni oshiradi.
	Malakali ishchilarning yetishmovchiligi	Raqamli ko'nikmalar talab etiladigan sohalarida malakali ishchilarning yetishmasligi bozor talabini qondira olmaydi va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi.
Iqtisodiy tengsizlik	Daromad farqlari	Raqamli iqtisodiyotda yuqori malakali va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchilar yuqori, past malakali ishchilar esa kam maosh oladi. Bu iqtisodiy tengsizliklarni kuchaytiradi.
	Ijtimoiy farovonlikning pasayishi	Daromad tengsizligi ijtimoiy farovonlikni pasaytiradi va turmush darajasini yomonlashtiradi.
Ijtimoiy muammolar	Ijtimoiy beqarorlik	Ishsizlik darajasi oshishi ijtimoiy beqarorlik va noroziliklarga olib kelishi mumkin. Ishsizlar sonining ko'payishi ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi.
	Ijtimoiy himoya tizimlarining yuklanishi	Ishsizlik nafaqalariga bo'lgan ehtiyoj ortadi, bu esa davlat budjeti va ijtimoiy himoya tizimlariga qo'shimcha yuk yuklaydi.
Mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir	Mahalliy bizneslarning yopilishi	Raqamli transformatsiyaga moslasha olmagan mahalliy bizneslar yopilishi mumkin. Bu mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ish o'rinlarini kamaytiradi.
	Infratuzilmaning yetishmasligi	Raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan infratuzilmaning yetishmasligi iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

3 <https://davr24.uz/archives/6103>, 2020.

4 Muallif ishlanmasi




Ishchi kuchining mobilligi	Geografik noaniqlik	Ishchi kuchi raqamli iqtisodiyot talablariga moslashish uchun geografik jihatdan ko'chib yurishi kerak bo'ladi. Bu esa oilaviy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
	Moslashuvchan mehnat bozori	Ishchi kuchi tez-tez ish o'rinlarini o'zgartirishi kerak bo'ladi, bu esa mehnat bozorida beqarorlikni kuchaytiradi.
Ta'lim va qayta tayyorlash	Doimiy ta'lim zarurati	Ishchilar yangi texnologiyalarni o'rganish va o'z ko'nikmalarini yangilab turishlari zarur. Bu esa ta'lim tizimiga qo'shimcha bosim yuklaydi
	Ta'lim dasturlarining yetarli darajada bo'lmashligi	Raqamli ko'nikmalarni o'rgatadigan ta'lim dasturlarining yetishmasligi ishchilarning moslashuvchanligini pasaytiradi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun tadqiqotchi tomonidan quyidagi tavsiyalar berib o'tildi:

- Mamlakatning barcha hududlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, internet va texnologiyalarga kirishni kengaytirish.
- Raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda ta'lim va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish.
- Ishsizlar uchun ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish.
- Mahalliy bizneslarni raqamli transformatsiyaga moslashishiga yordam berish va yangi texnologiyalarni joriy etish.

Bu chora-tadbirlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik muammolarini bartaraf etishga yordam beradi va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikni oldini olish va innovatsion usullarni qo'llashda tadqiqot jarayonida alohida xususiyatlari o'rganildi(2-rasm).



2-rasm: Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikni oldini olishning alohida xususiyatlari

Innovatsion yondashuvlar, startaplarni qo'llab-quvvatlash, raqamli tadbirkorlikni rag'batlantirish, ishchi kuchining moslashuvchanligi, moslashuvchan ishlash modellarini joriy etish, yuqori iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash jarayonlari mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishi kerak. Bu texnologik yangiliklar va zamonaviy infratuzilma yaratilishiga yordam beradi. Bu dasturlar zamonaviy texnologiyalar va bozor talablariga moslashtirilgan, talabalar va ishchilarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maktab va universitetlarda maxsus kurslar va dasturlarni joriy etilgan bo'lishi kerak.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotda ishsizlikning oldini olish uchun innovatsion startaplar va kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar, imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlari kabi mexanizmlarni joriy etish, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tadbirkorlarni innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga qo'llab-quvvatlov ko'rsatish, ishchilarga masofaviy ish, qisqa muddatli shartnomalar va boshqa moslashuvchan ish modellari orqali yangi ish imkoniyatlarini yaratish, platforma iqtisodiyotining imkoniyatlaridan foydalanish kerak. Bu esa qisqa muddatli va vaqtinchalik ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ishsizlik nafaqalarini kuchaytirish, ishsizlik nafaqalarini oshirish va ishsizlarga qayta tayyorlash dasturlariga kirish imkoniyatini ta'minlash, ijtimoiy himoya dasturlarini takomillashtirish, ishsizlik va ijtimoiy himoya dasturlarini yaxshilash, ishsizlarga va kam daromadli oilalarga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish raqamli transformatsiyani tezlashtirishga olib keladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion loyihalar, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va ularga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov ko'rsatish mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro hamkorlik, xalqaro tajriba almashinuvi, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida xalqaro tajriba almashinuvi va hamkorlikni kuchaytirish bu ilg'or texnologiyalarni joriy etishda yordam beradi. Global bozorlarga kirish esa mahalliy kompaniyalarga global bozorlarga kirish imkoniyatini yaratish va ularni raqobatbardoshlikni oshirishda qo'llab-quvvatlashga olib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikni oldini olish va innovatsion usullarni qo'llash uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim: raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, ishchi kuchining moslashuvchanligini oshirish, ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash dasturlarini takomillashtirish, raqamli transformatsiyani tezlashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Bu yo'nalishlar mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli rivojlanishi va ishsizlik darajasini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank Overview on Uzbekistan (World Bank).
2. Fitch Solutions on Uzbekistan's Economic Outlook (Fitch Solutions).
3. Daryo News on World Bank Forecasts (Daryo.uz).
4. EBRD Transition Report (EBRD).
5. Euronews on Uzbekistan (euronews).
6. (Fitch Solutions) (Daryo.uz).
7. Abdulloyev A.J., Davlatov.S.S. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining rivojlantirish ning asosiy yo'nalishlari va unda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. Toshkent, 2016. – № 3.son. – B. 1-9.
8. Abdulloyev A. J. Agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №4(12), 2023y. 53-64 betlar.
9. Abdulloyev A. J. Agroklaster faoliyatini boshqarishning "Bazaviy" modeli va uning xususiyatlari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali, №2, 2023 y.13-15 betlar.
10. Abdulloyev A. J. Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. Экономика и предпринимательство. – Москва, 2023. –№9. – С. 617-623

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.